

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.I.Nurmatova	
Talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinishi	107
D.B.Mahametova	
Use of information technologies in education.....	112
M.Norinov	
Bo'lajak texnik mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini multimedia vositalari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi.....	115
G.T.Hojikarimova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	119
X.M.Jo'rayev	
Kimyo o'qituvchilarining o'zini-o'zi rivojlantirish omillari	123
N.B.Odilxo'jazoda	
Kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	128
B.T.Tojibayev, S.S.Isokov	
Globalashuv kontekstida – ta'lim	132
D.Q.Oxunova	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalari.....	136
N.E.Yuldasheva	
Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari	140
B.X.Baydjanov, Y.E.Mamatova	
Boshlang'ich ta'limda mediamadaniyat va texnoetikani o'qitish texnologiyasini takomillashtirish.....	144

FALSAFA

Б.С.Ганиев	
Социально-политические факторы повышения предпринимательской культуры в Узбекистане	150
M.D.Pardaeva	
Uchinchi renessans poydevorini yaratishda Navoiy Naqshbandiyona g'oyalarining ahamiyati.....	156
Z.P.Nadirova	
Intuitive cognition as a synergistic process.....	161
X.X.Raxmatova	
Naqshbandiylik – jahoniy ta'limot	165
Z.A.Akhmedova	
Donishning ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish haqidagi fikrlari tahlili.....	170
B.X.Karimov	
Ong muammosining ilmiy – falsafiy va psixologik talqini.....	175
L.M.Karimova	
Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida ayollarning ijtimoiy mobilligini takomillashtirish mexanizmlari	180
M.M.Gulamova	
Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda "Naqshbandiya Tariqati Nazariyotchisi" ta'limotining ahamiyati.....	185
O.T.Sharipova	
Xojagon tasavvufiy ta'limotida "Olam Kabir" haqida	189
Sh.B.Sattorova	
Mirzo Abdulqodir Bedilning inson va jamiyat haqidagi ta'limotida adolat va tenglik muammosini o'ziga xos tadqiqi.....	194
B.X.Hamdammov	
Boburning insonparvarlik – falsafiy qarashlari.....	200

NAQSHBANDIYLIK- JAHONIY TA'LIMOT

НАКШБАНДИЯ – КАК МИРОВАЯ НАУКА

NAQSHBANDIYA - AS WORLD SCIENCE

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna¹¹Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi**Annotatsiya**

Maqolada naqshbandiylik ta'limotining jahoniy ta'limotga aylanishida Xoja Ahror Valiyning roli tahlil qilingan. Alisher Navoiy Xoja Ahroming, nafaqat, Movarounnahr va Xuroson, balki Iroq, Ozarbayjon, Rum, Misr, Hindiston, Afg'oniston va Xitoyda ham mashhur shayx, sifatidagi xizmatlarini alohida qayd etganligi asoslab berilgan. Eron, Turkiya, Hindistondan Samarqandga muridlar kelib, Xo'ja Ahrordan tasavvuf ilmini olganliklari haqida dalillar keltirilgan.

Аннотация

В статье анализируется роль Ходжи Ахрора Вали в трансформации доктрины Накшбанди в мировую доктрину. Обоснованы взгляды Алишера Навои о заслуге Ходжи Ахрора как известного шейха, не только в Моваруннахре и Хорасане, но и в Ираке, Азербайджане, Румынии, Египте, Индии, Афганистане и Китае. Рассмотрены материалы о том, что мюриды приехали в Самарканд из Ирана, Турции и Индии и научились суфизму у Ходжи Ахрора.

Abstract

The article analyzes the role of Khoja Ahror Vali in the transformation of the Naqshbandi doctrine into a world doctrine. The views of Alisher Navoi on the merits of Khoja Akhror as a famous sheikh, not only in Movarunnahr and Khorasan, but also in Iraq, Azerbaijan, Romania, Egypt, India, Afghanistan and China, are substantiated. Materials are considered that the murids came to Samarkand from Iran, Turkey and India and learned Sufism from Khoja Akhror.

Kalit so'zlar: Naqshbandiylik, inson, borliq, tasavvuf, rashha, "Risolai Volidiyya", nabiy, tekka, naqshbandiylik markazlari

Key words: Naqshbandiy, man, existence, Sufism, rashkha, "Risolai Volidiya", nabi, tekke, Naqshbandiy centers.

Ключевые слова: Накшбандия, человек, существование, суфизм, рашха, «Рисолаи Волидия», наби, текке, центры накшбандия.

KIRISH

Buxoroi Sharifda vujudga kelib jahoniy ta'limotga aylangan, islom tamadduni rivojiga munosib hissa qo'shgan, umumbashar e'tirofiga sazovor bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy merosimizning bebaho hazinalaridan biri naqshbandiya kamolot yo'lidir. Bu ta'limotni Bahouddin, Shohi Naqshband, Xojai Buzurg nomlari bilan mashhur Silsilai Sharifning 16 halqa piri Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy (1318-1389 yy) asoslagan.

Xojagon-naqshbandiya tariqati uzoq tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo tasavvuf maktabi an'analari davomchisi sifatida mahalliy ildizlarga ega bo'lib, jumladan, Hakim Termiziy (205/820-320/932 yy), Abu Bakr Kalobodiy (305/917 – 385/995 yy), Mustamliy Buxoriy (vaf. 434/1043 yy) kabi so'fiylar va tasavvuf nazariyotchilari g'oyalaridan ta'sir olgan. Shunday bo'lsa-da, xojagon-naqshbandiya tariqatining bevosita muayyan tashkilot sifatida vujudga kelishi Xoja Yusuf Hamadoniyning (440/1048-535/1140 yy) o'z ta'limotini yoyish va shogirdlar tarbiyalash maqsadida O'rta Osiyoga kelishi, Buxoro shahrida xonaqoh ochib, bu yerda o'z so'fiylik maktabiga asos solishi bilan bog'liqdir. Garchi Hamadoniyy ko'plab muridlar tarbiyalagan, jumladan, ulardan to'rttasi – mazkur silsilaga ketma-ket rahbarlik qilgan Xoja Hasan Andaqiy (vaf. 552/1157 y), Xoja Abdulloh Barraqiy (vaf. VI/XII a.), Xoja Ahmad Yassaviy (vaf. 562/1166 y) va Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyy (taxm. 496/1103-575/1179 yy) uning asosiy shogirdlari hisoblangan bo'lsalar-da, ilk ikki shogirdidan keyin silsila rahbarligini o'z zimmasiga olgan Yassaviy va G'ijduvoniylargina xojagon ta'limotini rivojlantirib, mazkur silsilani so'fiylik tariqatiga aylantirishga, ya'ni o'z mustaqil tariqatlariga – **xojagoniya** hamda asli xojagon silsilasidan ildiz olgan **yassaviya** tariqatlariga asos solishga muvaffaq bo'ldilar. Xojagon-naqshbandiya manbalari ham aynan Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning ushbu tariqat asoschisi ekanligini ta'kidlaydilar(1;103). Jumladan, "Rashahot ayn al-hayot" muallifi G'ijduvoniyni "xojagon zanjirining bosh halqasi", "xojagon tabaqasining asoschisi va azizon silsilasining boshlovchisi" deb tanishtirar ekan, uning hayot tarzi barchaga o'rnak va barcha guruhlar uchun maqbul ekanligini ma'lum qiladi(2;34-35).

Naqshband faoliyati bilan xojagon-naqshbandiya tariqatining xojagoniya bosqichi poyoniga yetib, *naqshbandiya* bosqichi boshlandi. Xoja Bahouddin Naqshband birinchi navbatda *zikri xaffiyi* qaytadan joriy etdi(3;55). Yusuf Hamadoniy va Abdulxoliq G'ijduvoniy tomonidan ishlab chiqilgan sakkiz *rashhaga* uchta yangi rashha (*vuqufi zamoniyy, vuqufi adadiyy, vuqufi qalbiyy*) qo'shib, ularning sonini o'n bittaga yetkazdi. Bahouddin Naqshband tarkidunyochilik va go'shanishinlikni inkor etib, odamlar bilan faol munosabatda bo'lish va kasb-kor bilan shug'ullanish, shu bilan bir paytda bir lahza bo'lsa-da Xudoni esdan chiqarmaslikni targ'ib etdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xoja Ahror Valiy shaxsini, uning naqshbandiylik ta'limotini jahoniy ta'limotga aylantirishdagi rolini tadqiq qilish bilan xorijiy va mahalliy mutaxassislar shug'ullanib kelmoqda. Jumladan, amerikalik olim Jo En Gross va o'zbekistonlik tarixchi olim Asomiddin O'rinboyev ilmiy hamkorligida tayyorlangan Xoja Ahror Valiyning dastxat-qo'lyozma maktublar to'plami muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari Y.Paul, Hamid Algar, A.Knish, J.S.Trimingem, A.Xismatuln, Devin Di Uis, F.Akimushkin, Usmon Turar, Najdat To'sun, Ertug'ul O'ktan tadqiqotlarida Xoja Ahror Valiyning naqshbandiylik ta'limotida tutgan o'rniga doir ma'lumotlar berilgan.

V.V.Bartold, A.N.Boldirev, YE.E.Bertels, V.L.Vyatkin, N.G.Mallitskiy, R.N.Nabiyev, O.D.Chexovich va A.Y.Yakubovskiy tadqiqotlarini qayd etish ham joizdir. Olimlar Xoja Ahror Valiyning davlat arbobi sifatidagi xizmatlarini uzoq yillar mobaynida Amudaryo sohilidagi hokimlarga juda katta ta'sirini o'tkazib, o'zaro nifoq va urushlarni bartaraf etishda bor kuchini sarflagani bilan ifodalaydi. N.Mallitskiy esa "Xoja Ahror Valiyning temuriylarga o'tkazgan ulkan va muruvvatli ta'sirini Rus mitropolitining udel knyazliklari davridagi ahamiyati bilan qiyoslash mumkin", - deb baho bergan.

Mustaqillik yillarida Xoja Ahror Valiyning hayoti, faoliyati va ma'naviy merosini o'rganishga katta e'tibor qaratildi. N.Komilov, A.Juzjoniyy, E.Karimov, K.Kattayev, M.Kenjabek, Z.Qutiboyev tadqiqotlarida Xoja Ahror Valiy hayoti va ma'naviy merosi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. A.O'rinboyev, M.Hasaniy tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida Xoja Ahror Valiyning tinchlik, jamiyatda barqarorlikni ta'minlashdagi xizmatlari to'g'risidagi fikr-mulohazalar o'z aksini topgan. Naqshbandiylik ta'limotining jamiyat barqarorligini, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashdagi o'rnini xususida H.Aliqulov, V.Alimasov, S.Karimov, G.Navro'zova, N.Safarova, O.Sharipova tadqiqotlarida ma'lumotlar berganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada naqshbandiylik ta'limoti va uning jahoniy ta'limotga aylanishida Xoja Ahror Valiyning xizmatlarini tadqiq etishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, dialektik, sinergetika, germenevtika usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Naqshbandiya tarixida "oltin davr" deb nom olgan XV asrda Xoja Ahror Valiy (1404-1490 yy.) ning shon-shuhrati tariqat nufuzining, nafaqat, O'rta Osiyo, balki Yaqin Sharq va Hind diyollarida keskin ortishiga imkon yaratdi. Naqshbandiya tariqati Movarounnahr muhitida vujudga keldi. Nodir naqshbandiylik asarlarining aksariyati fors tilida yaratildi. Naqshbandiylik harakati Movarounnahr va Xurosonda yoyilgan davrlarda bu o'lkalar madaniy jihatdan yuksak taraqqiy etgan olamning bir qismi edi.

Prezident Sh.M.Mirziyoevning **Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi** nutqida Vatanimiz olim va mutasavviflarining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnini e'tirof etib, shunday deganlar: "Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Iso va Hakim Termiziylar, Mahmud Zamaxshariy, Muhammad Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab daholar nomi nafaqat islom, ayni vaqtda jahon sivilizatsiyasi tarixida haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan". Davlatimiz rahbari qayd etgan buyuk ajdodlarimizdan Bahouddin Naqshband Naqshbandiylik ta'limotiga asos solgan bo'lsalar, Xoja Ahror Valiy mazkur ta'limotni islohotchilik darajasida rivojlantirib, uni murosa falsafasining nazariy va amaliy asoslari bilan boyitgan, jahoniy ta'limotga aylantirishda o'zining beqiyos hissani qo'shgan.

Fikrimizning dalili sifatida hazrat Alisher Navoiyning "Nasoyim – ul muhabbat" asarida Xoja Ahror haqida kuchli ixlos bilan bildirgan fikrini keltirsak, mutasavvifning, nafaqat, Movarounnahrda, balki, Xuroson, Iroq, Ozarbayjon, hattoki Rum, Misr, Xitoy va Hindistonda mashhur shayx, orif, murabbiy, ustoz va tasavvuf ta'limotining buyuk namoyandasi sifatidagi qiyofasi gavdalanadi. Asarda shunday deyiladi: "Hazrat Xojag'a oncha muknat dast berdiki, ma'lum emaski, mashoyixdin

FALSAFA

hech kimga ul dast beribdur, yo yo'q. Mulkka ajab isilo va salotin va mulukka g'arib isrofu hukm, Movarounnahr salotini o'zlarin alarning muridzodalari va mahkumi hukmi tutorlar erdi. Yo'qki, yolg'iz Movarounnahr salotini, balki Xuroson va Iroq va Ozarbayjon, hattoki bir soridin Rum va Misrg'acha va bir soridin Xito va Hindg'acha barcha muluk va salotin o'zlarin Xojaning mahkumi hukmi va ma'muri farmoni tutarlar erdi va ruq'alari bu salotinga oncha muassir erdikim, alarning ahkomi o'z xuddomig'a bo'lmag'ay va Hazrat Xojaga zohir jamiyati barcha abnoi zamondin ko'prak voqe' erdi"(4; 280). Alisher Navoiy yozgan har bir misrada olam – olam ma'no bor. Demakki, Xoja Ahror Valiyning ijtimoiy hayot munosabatlarini donishmandona tahlil qilgan mutasavvif sifatida naqshbandiylik ta'limotini jahonga yoyishdagi xizmatlari o'rganishga molik masaladir.

Xoja Bahouddin Naqshband vafotidan keyin uning xalifalari Xoja Alouddin Attor (vaf. 802/1400 y) va Xoja Muhammad Porso (749/1348-822/1420 yy) xojagon-naqshbandiya tariqatining jipslashuvi, tashkiliy tuzilmasining mustahkamlanishi hamda ushbu tariqat ta'sirining keng yoyilishida katta rol o'ynashdi. Ular davrida Movarounnahrning deyarli barcha yirik va o'rtacha shaharlarida xojagon-naqshbandiya tariqatining xonaqohlari paydo bo'ldi. Xoja Ubaydulloh Ahror (806/1404 – 895/1490 yy) rahbarligi davrida esa ushbu tariqat katta iqtisodiy va siyosiy nufuzga ega bo'ldi. Ubaydulloh Ahrorning temuriy hukmdorlar bilan yaqin munosabatlari xojagon-naqshbandiya tariqatining keyingi ijtimoiy-siyosiy faolligini belgilab berdi.

Bahouddin Naqshband Xojagon va Yassaviya tariqatlarining eng ilg'or, xalq kamoloti uchun kerakli bo'lgan g'oyalariga tayanib, 1361 yildan boshlab yangi – Naqshbandiya ta'limotni yarata boshlagan.(4, 63) 1370 yil Xojagon tariqatining piri Sayyid Amir Kulol vafotidan keyin Bahouddin Naqshband yangi Naqshbandiya tariqatini tashkil etdi. Bu tariqat Buxoroi Sharifda tashkil topdi va keyinchalik Xoja Ahror Valiyning bevosita rahbarligida jahonshumul ta'limot sifatida dunyoga keng tarqaldi.

Naqshbandiya tariqati va ta'limotning mohiyati haqida manbalarda Bahouddin Naqshband aytgan so'zlar keltirilgan. Naqshbandiya ta'limotini rivojlantirgan Abdurahmon Jomiy bu ta'limotni juda go'zal ravishda quyidagicha ta'riflagan: "Qur'oni Karim - barcha ilohiy kitoblarning, Muhammad s.a.v. – barcha payg'ambarlarning, Naqshbandiya-barcha tasavvufiy ta'limotlarning, Bahouddin Naqshband-barcha avliyolarning mukammal xulosasidir".(5, 244)

Naqshbandiya ta'limotining o'ziga xos xususiyatlari haqida tadqiqotlarda olimlarning fikrlari keltirilgan. Manbadagi dalillar asosida Naqshbandiya ta'limotining quyidagi o'ziga xos tomonlari:

Naqshbandiya inson kamolotining eng qisqa yo'lidir. Manbalarda naql qilishlaricha, bir kuni Bahouddin Naqshbandning sharif suhbatlarida Boyazid Bistomiy-Sulton ul-Orifinning quyidagi so'zlari naql qilinibdi: "Bu yo'lda yuruvchi qanchalik yurmasin, uning so'nggi qadami bizning birinchi qadamimiz ustida bo'ladi".

Naqshbandiya kamolotning eng maqbul me'yordagi, murosada, tinchlik, bag'rikenglik yo'lidir. Manbalarda Naqshbandiya tariqatining mohiyatini ochib beruvchi quyidagi dalillar bor: Hazrat Bahouddin Naqshband Hirotda bo'lganlarida Malik Husayn u kishidan so'raydi: "Sizning tariqatingizda zikri jahr, xilvat va samo' bormi?" Xoja "Yo'q" dedilar. Yana so'radi: "Sizning tariqatingiz nimaga asoslangan?" Xoja dedilar: "Xilvat dar anjuman, safar dar vatan va Zohirda xalq bilan, ammo botinda Haq bilan bo'lish. Hazrati Haq Subhanahu O'zining Qur'oni Karimida: "Na tijorat va na savdo-sotiq ularni Allohning zikridan chalg'itolmaydi" degani xuddi mana shu maqomga ishoradur"(6; 110).

Naqshbandiya jamiyat manfaatiga uyg'un kamolot yo'lidir. "Xilvat dar anjuman" tamoyili "Dast ba kuru, dil ba Yor", ya'ni "Qo'l ishda" va "Qalb Alloh bilan" shiori asosida yashash imkonini beradi. Bu shior tariqat ahliga Vatani, el-yurti, mahalla va oilasi oldidagi burchini ado eta turib, shu bilan birga mehnat qilib, ezgu amallar qilish va qalbida Allohni zikr etib, tafakkur hamda shukronalar qilib yashashga, insonning o'z tanasi va ruhini mutanosiblikda, murosada saqlay olish imkonini beradi.

Naqshbandiya o'zlikni anglashning eng maqbul yo'lidir. "Safar dar Vatan" Naqshbandiya ta'limotidagi asosiy tamoyil bo'lib, insonni o'zligini anglashga, aslini bilishga yordam beradi.

Naqshbandiya xolis pok va beozor kamolot yo'lidir. "Xilvat dar anjuman" tamoyili bu tariqatdagi xufiya zikriga ham imkon bergan. Xufiya zikr insonni riyodan, tama va kibru havodan saqlagan. Xufiya zikr bilan suhbat bu tariqat uchun xosdir.

Naqshbandiya sunnatga asoslangan kamolot yo'lidir. Naqshbandiya tariqatini "urvatul-vusqo", ya'ni kuchli tutqich deb aytadilar.

Naqshbandiya haqiqiy komil insonni tarbiyalashning maqbul yo'lidir. Bahouddin Naqshband tariqat mohiyatini ochib yana shunday deganlar: "Bu yo'l talabida bo'lganlarga odobga amal qilish shart: "Tariqat yo'li odobdan iboratdur, har bir hol va har bir maqomning odoblari bor. Kimki odobni ushlasa uni Alloh kamolot ahlining kamoliga yetkazadi". Adab bu xulqni chiroyli qilish, so'zni va fe'lni soz qilishdir. Va aytadilar: "Xizmat odobi ulug' baxtdan yaxshiroq. Uning belgisi – amalning qabuli, tug'yon esa adabning buzuqligidir" Adabni saqlash – muhabbat samarasi yana muhabbat daraxti yana muhabbat urug'i hamdir"(6, 124)

Naqshbandiya tavhidga etuvchi yo'lidir. Hazrat Bahouddin aytadilar: "Bu yo'ning boshi kalimai tavhiddir va oxiri ham. Kalimai tavhid birinchi va oxirgi saboqdir va saodat kalitidir. Har qanday eshik uningsiz ochilmaydi". Kalimai tavhid deganda tasavvuf ahli "La ilaha ilalloh", ya'ni "Allohdan o'zga iloh yo'q" degan kalimani nazarga tutgan. Inson faqatgina Allohga bog'lansa, shu uning uchun birinchi va oxirgi saboq hamda saodat kaliti ekan. Inson aynan shu kalit bilan fayz, nur, xayr, murosaa, ahillik, tinchlik barakaning eshiklarini ochar ekan;

Naqshbandiya tariqatining Xoja Ahror Valiy orqali tarqalgan silsila nafaqat Movarounnahr hududi, balki Xuroson, Iroq, Ozarbayjon, Rum va Misrgacha, Xitoy va Hindistongacha yetib borganligi ko'rishimiz mumkin. Samarqand qozi kaloni tarixchi Abu Tohir xoja o'zining "Samariya" kitobida: "Xoja Ahrorning o'ziga jalb qiluvchi ohangrabosi shu darajada kuchli ediki, uning shirinsuhan suhbatlari umrbod esga qolardi", deb aytgani ham dunyo tasavvuf ta'limotida uning ma'naviy mavqei yuqori bo'lganidan dalolat beradi. Xoja Ahror Valiydan shogirdi Mavlono Muhammad Qozi orqali Maxdumi A'zam Dahbediydan boshlab "naqshbandiya-ahroriya-dahbediya" yoki shogirdi Mavlono Zohid Vaxshuvoriy orqali imom Ahmad Sirhindiydan boshlab "naqshbandiya-ahroriya-mujaddidiya" kabi silsilaning turli tarmoqlari shakllangan. Uning avlodlaridan Naqibxon To'g'ral, Sultonxon To'ra Ado kabi ulug' kishilar yetishib chiqqan.(7; 236)

Naqshbandiya hozirgacha amalda bo'lgan jahonshumul tariqatdir. Bahouddin Naqshband asoslagan Naqshbandiya ta'limotini uning shogirdlari Alouddin Attor, Muhammad Porso, Alouddin G'ijduvoni va Ya'qubi Charxiy targ'ib etdilar, rivojlantirdilar va u haqida asarlar yozdilar. Xoja Ahror Valiy Naqshbandiya ta'limotini jahoniy tariqatga aylantirdi.(8; 114, 203) Hozirgacha Naqshbandiya – Xolidiya va Naqshbandiya Mujaddidiya tariqatlari dunyoda keng yoyilgandir.

Shayx Ali Kurdiy uzoq yillar davomida Xoja Ahrorning farzandlariga tariqatdan saboq berdi. 1519 yilda Kurdiy safaviylar tomonidan islomda sunniylik yo'nalishiga sodiqligi uchun qatl etildi. Uning olti xalifasining taqdiri ham shunday kechdi. Safaviylar hukmronligi davrida shaharni tashlab chiqib ketganlargina tirik qoldilar. Shunga qaramasdan, o'nlab yillar davomida Eronning shimolida naqshbandiylikning ta'siri yetarli darajada kuchli bo'ldi.

Naqshbandiya so'fiylari sunniylik yo'nalishida bo'lganliklari sababli safaviylar ularni ta'qib ostiga oldilar. Sunalloh Kuzakunaning Tabrizga kelishi bilan safaviylarning birinchi poytaxti Tabriz naqshbandiylik tariqati faoliyatining markazi bo'ldi. Sunalloh Kuzakunani Atouddin Maktabdoriyning shogirdi bo'lib, qaysikim u kishi Hirotda Sa'duddin Qoshg'ariyning ma'naviy rahnamosi edi. Qaysikim, Jomiy, Xoja Ahrorlar ham Sa'duddin Qoshg'ariyning muridlari edilar.(9; 254)

Naqshbandiylik ta'limoti g'arbiy turklar orasida tariqatning buyuk asoschisi Naqshband vafotidan bir asr o'tgach, XV asrdan yoyila boshlandi. Bu naqshbandiylikning Movarounnahr doirasidan chetga chiqishida juda muhim qadam bo'ldi. Usmoniylar saltanatida naqshbandiya tariqati islomning sunniylik yo'nalishiga sodiqligi, shariat ahkomlariga izchil rioya qilishi sabab turk aholisi orasida ko'p sonli tarafdorlarni qisqa muddatda jalb etishga muvaffaq bo'ldi. Turkiyada naqshbandiya so'fiylik usullarining birinchi targ'ibotchisi Mulla Abdulloh Ilohi Samoviy (vafoti 1490 y) edi. U kishi Samarqandda Xo'ja Ubaydulloh Ahror qo'lida tahsil topgan. Tahsili tugagach, Mulla Abdulloh Ilohi bir necha yil o'zi tug'ilgan shaharda, keyinchalik Istanbulda tariqatni tarqatdi. Zeyrek machitida birinchilardan bo'lib naqshbandiya markazini tashkil etdi va ko'plab tariqat tarafdorlarini jalb etdi. Shunga qaramasdan, Mulla Abdulloh Ilohiy xilvatda yashashni ixtiyor etar va o'zini diniy ilmlarga bag'ishlashni afzal ko'rardi.(9; 250) Ilohiyning muridi Amir Ahmad Buxoriy(v.1516 y). Ilohiyning Samarqandda bo'lgan vaqtidanoq uning ortidan qolmas, Xoja Ahror saboqlarini murshididan olmoqqa intilardi.

Xoja Ahror Valiy o'zga davlatlardan kelgan shogirdlariga murosada yashash, jamiyat a'zolari bilan birgalik mehnat qilish, insonni qadrlash, halol yashash, haromdan hazar qilmoq

FALSAFA

g'oyalarini singdira olgan. Jumladan, Hind o'lkasidan kelgan Pahlavon Hindu hikoyatida ham mutasavvifdan halollik, pokizalik, yon-atrofdagilarga mulozamat bilan munosabatda bo'lishni o'rganganligini bayon etgan.

Naqshbandiyaning Hind o'lkasida keng targ'ibot qilinishida Boburning alohida xizmatlari bor. Bobur o'z yoniga panohtab kelgan naqshbandiy pirlarni behad ulug'ladi va mafkuraviy faoliyatlari uchun yetarlicha sharoit yaratdi.

Misol tarzida biz - afg'onistonlik o'zbeklar buyuk olim va zullisonayn shoiri alhoj ustod Qoriy Muhammad Azim Azimiy Jo'zjoniy devonidan bir necha bayt mazmunini namuna qilib keltiramiz. Ustod Azimiy 52 baytli qasidasini "Naqshbandiya Mujaddidiya oliy silsilasiga" deb atagan. Shoir hazrati Muhammad alayhissalomdan boshlab 31 islom rahbari va mashhur shayxlarning ismlarini tilga olib, o'z qasidasining 12 baytini naqshbandiya tariqatining mashhur namoyandasi - Ubaydulloh So'fijon xalifaga bag'ishlaydi, uni Xoja Ahrorning otdoshi (adashi, hamnoma) deb chuqur hurmat bildiradi va Xoja Ahrorni din shohi, saxovat buluti, xayr va ehson koni, baxshish va ato ummoni, deb maqtaydi.

Ustod Azimiy naqshbandiya tariqatiga bag'ishlangan 26 baytli boshqa bir qasidasida ushbu tariqat peshvolari jumlasidan Xoja Ahror Valiyning ulug'lab, erkin va ozod insonlarning sarvari bo'lgani uchun uning laqabi Xojai Ahror bo'ldi, deydi. Xoja Ahror Valiyning o'zidan qoldirgan katta ma'naviy merosi faqat Turkistonda emas, balki Afg'on mamlakati, Pokiston, Hind diyorida, Turkiya hamda boshqa islom diniga e'tiqod qilayotgan barcha tasavvuf va ma'naviyat muxlislari qalbidan o'rin olib, ilmu ziyo manbai bo'lib kelgan. Mutasavvifning nomi chuqur ehtiromlar va e'zozga ega bo'lgan holda O'zbekiston va Afg'oniston xalqlari orasida ma'naviy ko'priklarni bo'lib xizmat qilishi afg'on ilmiy jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy naqshbandiya tariqatining eng buyuk murshidlaridan biri ekanligi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotda katta iz qoldirib, o'z davrida shuhrati dunyo mamlakatlari bo'ylab mashhur bo'lganligini ta'kidlash zarurdir. Uning tasavvuf tarixidagi buyuk xizmatlaridan biri naqshbandiya silsilasi islom olamidagi eng ulug' silsilalardan biriga aylanishidir.

Xoja Ahror Valiy tasavvuf tarixidagi xizmatlaridan biri shundaki, xalq ravnaqi yo'lida tariqatni siyosatga, podshohlarga ta'sir ko'rsatuvchi amaliyotga aylantirgan. XV asrdayoq yetuk mutafakkir, tasavvuf namoyandasi Alisher Navoiy Xoja Ahrorni nafaqat Movarounnahr va Xuroson, balki Iroq, Ozarbayjon, Rum, Misr, Hindiston, Afg'oniston va Xitoyda ham mashhur shayx, orif sifatidagi xizmatlarini alohida qayd etadi.

Eron, Turkiya, Hindistondan Samarqandga muridlar kelib, Xo'ja Ahrordan tasavvuf ilmi bo'yicha tahsil olganlar. Jumladan, Eronda naqshbandiylik tariqati Xoja Ahrorning muridi shayx Ali Kurdiy tomonidan Turkiyada ul zotning muridi Abdulloh Ilohi Samoviy tomonidan targ'ib qilingan. Hindiston, Turkiya va Eronda bu yerga O'rta Osiyodan keladigan so'fiylarning markazlariga asos solingan. Xoja Ahror bu markazlarga qadam ranjida qilar ekanlar, hattoki sultonlar, shohlar ham u kishiga peshvoz chiqqanliklari haqida manbalarda hikoya qilinadi. Xoja Ahror vafotidan keyin u kishining avlodlari bobolarining izidan borib dunyoga naqshbandiya tariqatini targ'ib etganlar. Ayniqsa, bu ishlarning boshida Mirzo Boburning turganligi e'tiborga molikdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. Tavhid asrori. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashr., 1999y. 103 b.
2. مولانا فخر الدین علی بن حسین واعظ کاشفی. رشحات عین الحیات / با مقدمه و تصحیحات و حواشی و تعلیقات دکتر علی اصغر معینیان. در 2 جلد. جلد اول. - تهران: بنیاد نیکوکاری نورانی، 2536 - 361 ص 34-35.
3. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon (Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband) / Tahrir hay'ati: A. Rustam va boshq.; Forsiydan tarjima, so'zboshi va lug'at muallifi Mahmudxon Maxdum Hasanxon Maxdum o'g'li. -T.: Yozuvchi, 1993. 55-b.
4. Navro'zova G., Zoirov E. Buxoroi sharifning yetti piri. Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2018. 63-b. 5. Navro'zova G. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma'naviy merosi. - T.: "Fan", 2021. - 244 b.
5. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband. Forsiydan tarjimon, so'zboshi, izoh va lug'at muallifi M. Hasaniy. Toshkent: 2019. "O'zbekiston" NMIU, 2019. 110-bet.
6. Raxmatova X.X. Xoja Ahror Valiy merosidagi murosaga oid g'oyalar tahlili. Vuxoro. 2023. 240 b.
7. Юрген Пауль. Доктрина и организация Хваджаган-Накшбандия в первом поколении после Бахаъад-дина/ Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования): СПбГУ, 2001. 114-203 б.
8. Кнышь А.Д. Мусулманский мистицизм. Москва – Санкт-Петербург. "Диля", 2004. 254 стр.